

KO'PMA'NOLILIKNING SHAKLDOSH SO'ZLARDAN FARQLI JIHLARI

Davidov Yunus Jummayevich

Termiz davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qıtuvchisi

Tel: +998919081828

E-mail: davidov_yunus@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408214>

Annotatsiya. Ko'pma'nolilik va shakldoshlik hodisalari o'rtasida ayrim o'xshashlik va farqlar mavjud. O'xshashligi shundaki, ko'pma'nolilikda ham, shakldoshlikda ham shakli (ifoda plani) bir xil bo'lib, har ikkalasi birdan ortiq ma'no ifodalaydi. Ko'pma'nolilik va omonimlik uchun shakliy bir xillik umumiy bo'lsa-da, ma'nodagi bog'liqlik nuqtayi nazaridan ular bir-biridan farqlanadi.

Kalit so'zlar: Ko'pma'nolilik, shakldoshlik, polisemiya, omonimiya, sintaktik polisemiya, sintaktik omonimiya.

ASPECTS OF DISAMBIGUATION DIFFERENT FROM COGNATE WORDS

Abstract. There are some similarities and differences between the phenomena of ambiguity and formalism. The similarity is that the form (plan of expression) is the same in both polysemy and similitude, and both express more than one meaning. Although polysemy and homonymy share a formal similarity, they differ from each other in terms of meaning.

Key words: Ambiguity, morphemes, polysemy, homonymy, syntactic polysemy, syntactic homonymy.

АСПЕКТЫ РАЗРЕШЕНИЯ НЕОДНОЗНАЧНОСТИ, ОТЛИЧНЫЕ ОТ РОДСТВЕННЫХ СЛОВ

Аннотация. Между явлениями неоднозначности и формализма имеются некоторые сходства и различия. Сходство состоит в том, что форма (план выражения) одинакова и в многозначности, и в подобии, и оба выражают более одного значения. Хотя полисемия и омонимия имеют формальное сходство, они отличаются друг от друга по смыслу.

Ключевые слова: Многозначность, морфемы, полисемия, омонимия, синтаксическая полисемия, синтаксическая омонимия.

A.A. Potebnya "qayerda ikki ma'no bo'lsa, shu yerda ikki so'z bor¹", – deya ko'pma'nolilikni inkor etadi. U ko'pma'noli so'z tarkibida nechta ma'no bo'lsa, shuncha so'z hisoblaydi. Ya'ni polisemiya va omonimiyani tenglashtirib qo'yadi. Sh. Balli birdan ortiq ifodalanuvchiga ega bo'lgan bir belgi polisemiya, ifodalovchi tomoni mushtarak bo'lgan va har xil ifodalanuvchiga ega bo'lgan birdan ortiq belgi omonimiya² deya polisemiya va omonimiyaning farqini izohlaydi. Polisemiyaning taraqqiyoti ba'zan omonimiyani yuzaga keltirishi mumkin. Bu haqda M.Mirtojiev Omonimiyani yuzaga keltiruvchi hodisalardan biri polisemiyaning taraqqiyoti natijasidir ekanligini ta'kidlab, polisemiya dan omonimiyaning yuzaga kelishining

¹ Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Т.1-2, –М.: Учпедгиз, 1958, –С.198

² Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. –М.: Изд. ин. лит. 1955, –С.189

quyidagi yo‘llarini ko‘rsatadi. 1) Leksik ma‘nolarning tobelilik natijasidagi taraqqiyoti: musht, oy, kun, til 2) Polisemantik so‘z ma‘nolaridan biri vazifadoshlik yo‘li bilan taraqqiy etib, ko‘chma ma‘no hosil qilishi va o‘zi qo‘llanishdan chiqib ketganligi uchun bevosita u orqali bog‘lanib turgan ma‘nolar aloqasi uzilib ketishi natijasida: gap (suhbat), gap(ziyofat); suv (ichimlik), suv (kashtachilik atamasi) 3) Polisemantik so‘z ma‘nolaridan birining qo‘llanilmay qolishi yoki nofaol qo‘llanuvchi ma‘noga aylanib qolishi natijasida ma‘nolar bog‘liqligi uzilib, omonim vujudga keladi: boq1 (qara) –boq2 (iqtisodidan xabar ol) –boq3 (iqtisodini ta‘minla); boq1 (qara) –boq3 (iqtisodini ta‘minla). 4) Polisemantik so‘z ma‘nolaridan birini ifodalagan obyekt farazlardan iborat bo‘lib, bu faraz o‘z qimmatini yo‘qotishi natijasida: tepki. 5) Polisemantik so‘zni o‘zlashtirish jarayonida uning ayrim ma‘nolari olinadi va ularning o‘zaro semantik aloqasini ta‘minlab turgan leksik ma‘no tushirilib, o‘zlashmaydi: rasm(surat), rasm (urf-odat). Ularning semantik aloasini ta‘minlagan “taniqli qiluvchi”, “tus” ma‘nosi o‘zlashmagan. 5) Nisbat shaklidagi fe‘llar semantik tarqqiy etishi natijasida ma‘nolar bog‘liqligi uzilib, omonim vujudga keladi. 6) Polisemantik so‘zdan yangi so‘z yasalayotganda, ularning bog‘liqligini ta‘minlab turuvchi ma‘nolardan birining tushib qolishi natijasida ma‘nolar bog‘liqligi uzilib, omonim vujudga keladi: boshlamoq–ishda yetakchilik qilmoq; boshlamoq–poyabzalning uchi, yuzi charmini yangilamoq. Umuman olganda ko‘pma‘noli so‘zlarning ma‘nolari o‘rtasidagi bog‘likning uzilishi natijasida omonim so‘zlar yuzaga keladi. Ko‘pma‘noli so‘zlar taraqqiyoti omonim so‘zlarni yuzaga keltiradi. M. Mirtojjiyev xulosasiga ko‘ra polisemantik so‘z taraqqiyotiga ko‘ra omonimning tarkib topishi ot va fe‘l turkumida kuzatiladi. Sifat turkumida sanoqli miqdorda uchraydi. Boshqa turkumdagi polisemantik so‘zlardan omonim yuzaga kelgan emas.³

M.Hakimova “Polisemiya va polisemiya asosida hosil bo‘lgan omonimlarni farqlashda ichki semantik bog‘liqlikning, ya‘ni motivatsiyaning unutilganligiga, xiralashganligiga asoslanish kerakligini⁴ ta‘kidlaydi.

Ko‘pma‘nolilik va shakldoshlik hodisalari o‘rtasida ayrim o‘xshashlik va farqlar mavjud. O‘xshashligi shundaki, ko‘pma‘nolilikda ham, shakldoshlikda ham shakli (ifoda plani) bir xil bo‘lib, har ikkalasi birdan ortiq ma‘no ifodalaydi. Ko‘pma‘nolilik va omonimlik uchun shakliy bir xillik umumiy bo‘lsa-da, ma‘nodagi bog‘liqlik nuqtayi nazaridan ular bir-biridan farqlanadi. Quyida ko‘pma‘nolilik va omonimiyaning farqlariga to‘xtalamiz.

1.Ko‘pma‘nolilik ko‘p semali bir leksema; shakldoshlik ko‘p semali birdan ortiq leksemadir.

2.Ko‘p ma‘nolilikda semalar qancha ko‘p bo‘lishidan qat’iy nazar bir leksema hisoblanadi. Ya‘ni bir so‘zning turli ma‘nolaridir. Shakldoshlik esa qancha semasi bo‘lsa, shuncha leksema hisoblanadi. Ya‘ni ularni bog‘lab turgan narsa nomdagi bir xillik.

3.Agar semalar bir sememaga ya‘ni bir leksik ma‘no qurshoviga birlashsa, polisemiya hisoblanadi. Agar semalar ikki har xil semema, ya‘ni leksik ma‘no hosil qilsa, omonimiya yuzaga keladi⁵.

³ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2010. 166-бет

⁴ Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008. 58- бет

⁵ Суюнов Б. Ўзбек тилида омонимларнинг юзага келиш омили. Филол. фан. номз. дисс. 105-бет

4. Ko'p ma'noli so'zlar bosh(o'z) va hosila (ko'chma) ma'nodan yuzaga kelsa, shakldosh so'zlarning mano'lari bosh ma'no hisoblanadi. Masalan, ovqatning tuzi, gapning tuzi; qo'y(harakat), qo'y(hayvon).

5. Ko'pma'noli so'zlarning ma'nolari o'rtasida bog'lanish (bog'liqlik) mavjud bo'ladi. Omonim so'zlar ma'nolari o'rtasida semantik asos mavjud emas.

6. Omonimiya turli turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lmasligi, ma'nolarning alohida olingan mustaqil leksemalarga oidligi bilan boshqa hodisalardan farq qiladi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan farq qiladi.⁶

7. Omonim so'zlar lug'atlarda alohida-alohida sharhlanadi. Ko'pma'noli so'zlar lug'atlarda bir so'zning turli ma'nolari sifatida sharhlanadi.

8. Omonim so'zlar turli xil qo'shimchalarni qabul qiladi. Ko'pma'noli so'zlar esa bir xil qo'shimchalarni qabul qiladi: *tutni, tutdi; tuzsiz ovqat, tuzsiz gap*

Sh. Maxmaraimova polisemantik so'zlar o'z-o'zidan, yangi hosila nomlarni tug'diruvchi semantik mahsuldor so'zlar, omonimlar esa bunday xususiyatga ega emasligini ta'kidlaydi.⁷ Ko'pma'noli so'zlarda hosila ma'nolar qancha bo'lishidan qat'i nazar bosh ma'noga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'ladi. Chunki keyingi ma'nolar bosh ma'noning semantik taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan. Omonimlar esa shunchaki nomemasi bir xil bo'lgan, semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lmagan leksemalardir.

Biri ikkinchisidan o'sib chiqqan omoleksemalar ayni turkumga mansub bo'lsa, bular polisemem leksemadan semalar asosida farqlab olinadi. Omoleksemalardan har biri odatda boshqa- boshqa semalar tarkibiga ega bo'ladi⁸. Masalan, qo'r-I (ustini kul bosib turgan cho'g') bilan qo'r-II (ota-bobodan o'tib kelayotgan boylik, mol-mulk zaxirasi)

Ko'p ma'noli leksemaning semalari bir turkumga mansub bo'lsa, bunday semantik taraqqiyot natijasida ko'pincha polisemiya hosil bo'ladi. bosh-I ot. 1. Organizmning bo'yindan yuqori qismi, kalla. *Boshini qimirlatmoq* 2. Miya. *Boshi og'rimoq* 3. Aql-idrok, fikrlash qobiliyati. *Boshini aylantirmoq* 4. Rahbar, boshliq. *Davra boshi* 5. Dona. *4 bosh qo'y* 6. Bir bandga birlashtiruvchi bir qancha shingil. *Bir bosh uzum* 7. Eng yuqori qismi, uch, cho'qqi. *Tog'ning boshi* 8. Boshlanish nuqtasi. *Daryoning boshi* 9. Etikdo'zlik termini. *Etikka yangi bosh solmoq*. Bosh-II sifat. 1. Eng oldingi birinchi. *Bosh bola(farzand)* 2. Rahbarlik qiluvchi. *Bosh vrach. Bosh cho'pon.* 3. Asosiy muhim. *Bosh masala* 4. Katta. *Bosh harf*⁹. Bosh I va uning ma'nolari va xuddi shu kabi bosh II va uning ma'nolari o'zaro ko'pma'noli so'zlar hisoblanadi. Chunki bosh I va uning barcha ma'nolari ot so'z turkumiga mansub, Bosh II va uning ma'nolari sifat turkumiga mansub.

Ma'lum bir leksemaning semalari boshqa-boshqa turkumga mansub bo'lsa, bunday semantik taraqqiyot natijasida omonimiya hosil bo'ladi. Ya'ni predmetni anglatuvchi semema belgini anglatga va aksincha bo'lsa, bir leksema asosida boshqa leksema yuzaga kelishiga sabab

⁶ Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya) –Toshkent 2021. 209- bet.

⁷ Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya) –Toshkent 2021. 132- bet.

⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984. 10-бет

⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984. 35-бет

bo‘ladi. Yuqoridagi bosh I (ot) va bosh II(sifat) leksemalari bir-biriga nisbatan omonim hisoblanadi.

Ko‘pma’novlilik gaplar o‘rtasida ham yuz berishini yuqorida qayd etdik. Sintaktik polisemiya ham sintaktik omonimiyadan farq qiladi. Bu borada G. Roziqova quyidagilarni ta’kidlaydi: “Sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya o‘zaro o‘xshash, shuningdek, farqli belgilarga ham ega bo‘lgan ikki hodisadir. Ularning tilda mavjud bo‘lishi va amal qilishi shakl va mazmun nomutanosibligini keltirib chiqaradi. Har ikki hodisa ham tejamlilik tamoyili asosida yuzaga chiqadi. Sintaktik polisemiya ham, sintaktik omonimiya ham shakldoshlik xususiyatiga ko‘ra paradigmatic nomutanosiblik hosil qiluvchi hodisalar sirasiga kiradi”.¹⁰

REFERENCES

1. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1975. 166-бет
2. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008. 58- бет
3. Суюнов Б. Ўзбек тилида омонимларнинг юзага келиш омиллари. Филол. фан. номз. дисс. 105-бет
4. Махмараймова Ш. Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya) –Toshkent 2021. 209- бет.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984. 10-бет
6. Розикова Г.З Ўзбек тилида синтактик полисемия. Филол. фан. номз. дисс. Фарғона 1999.79, 123-бет
7. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – С. 16-21.
8. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 245-247.
9. Davidov Y. O‘ZBEK TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARINING QIYOSI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 836-839.

¹⁰ Розикова Г.З Ўзбек тилида синтактик полисемия. Филол. фан. номз. дисс. Фарғона 1999.79, 123-бет